

Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**THEORETICAL AND FUNCTIONAL APPROACHES TO THE CLASSIFICATION OF
ḤURŪF AL-MA‘ĀNĪ IN ARABIC*****Abdulaziz Ergashovich Rustamov****PhD in Philology, Senior Lecturer**Department of Arabic Studies**Tashkent State University of Oriental Studies*abdulaziz_rustamov@tsuos.uz*Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: ḥurūf al-ma‘ānī, classification, functional-semantic approach, ‘āmil theory, function words, polysemy, polyvalence, contextual variability, relational meaning.

Received: 08.05.26**Accepted:** 09.05.26**Published:** 10.05.26

Abstract: This article examines theoretical and functional approaches to classifying ḥurūf al-ma‘ānī in Arabic. The relevance of this study stems from the various approaches to classifying auxiliary elements, which is related to their semantic polyfunctionality, contextual variability, and dependence on syntactic position. The main approaches to classifying ḥurūf al-ma‘ānī are also analyzed, including morphological, grammatical (based on ‘āmil theory), and functional-semantic approaches. It is noted that traditional classifications, focused primarily on formal features and grammatical control, do not fully reflect the semantic nature of ḥurūf al-ma‘ānī. Therefore, a modern functional-semantic approach is substantiated, allowing for the relational nature of ḥurūf meanings, their polyvalence, and discursive determinacy. A conclusion is drawn regarding the need for a comprehensive classification that integrates formal-grammatical and functional-semantic parameters, thereby contributing to a more adequate description of the system of Arabic auxiliary elements..

**ARAB TILIDA ḤURŪF AL-MA‘ĀNĪ TASNIFIĞA NAZARIY VA FUNKSIONAL
YONDASHUVLAR*****Abdulaziz Ergashovich Rustamov****Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi**Arabshunoslik oliy maktabi**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

abdulaziz_rustamov@tsuos.uz

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: ḥurūf al-maʼānī, tasnif, funksional-semantik yondashuv, ʼāmil nazariyasi, xizmat soʻzlar, polisemiya, polivalentlik, kontekstual variativlik, relyatsion maʼno.

Annotatsiya: Maqolada arab tilidagi ḥurūf al-maʼānī tasnifiga doir nazariy va funksional yondashuvlar koʻrib chiqiladi. Tadqiqotning dolzarbligi yordamchi soʻzlarni tasniflashga oid turli yondashuvlarning mavjudligi bilan izohlanadi, bu esa ularning semantik vazifaliligi, kontekstual oʻzgaruvchanligi (variativligi) hamda sintaktik joylashuviga bogʻliqligi bilan bevosita aloqadordir.

Shuningdek, ḥurūf al-maʼānī tasnifining asosiy yoʻnalishlari tahlil qilinadi, jumladan, morfologik, grammatik (ʼāmil nazariyasiga asoslangan) hamda funksional-semantik yondashuvlar. Taʼkidlanadiki, asosan formal belgilar va grammatik boshqaruvga tayangan anʼanaviy tasniflar ḥurūf al-maʼānīning semantik mohiyatini toʻliq aks ettira olmaydi. Shu munosabat bilan ḥurūf maʼnolarining relyatsion tabiatini, ularning koʻp vazifaliligini hamda diskursiv shartlanganligini hisobga olish imkonini beruvchi zamonaviy funksional-semantik yondashuv asoslab beriladi. Natijada formal-grammatik va funksional-semantik mezonlarni uygʻunlashtiradigan kompleks tasnif zarurligi qayd etiladi, bu esa arab tilidagi yordamchi birliklari tizimini yanada mukammal va adekvat tavsiflashga xizmat qiladi.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ К КЛАССИФИКАЦИИ ḤURŪF AL-MAʼĀNĪ В АРАБСКОМ ЯЗЫКЕ*Абдулазиз Эргашович Рустамов**Доктор философии по филологическим наукам (PhD),**старший преподаватель**Высшая школа арабистики**Ташкентский государственный университет востоковедения*abdulaziz_rustamov@tsuos.uz*Ташкент, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова: ḥurūf al-maʼānī, классификация, функционально-семантический подход, теория ʼāmil, служебные слова, полисемия, поливалентность, контекстуальная вариативность, реляционное значение.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и функциональные подходы к классификации ḥurūf al-maʼānī в арабском языке. Актуальность исследования обусловлена различными подходами к

классификации служебных элементов, что связано с их семантической полифункциональностью, контекстуальной вариативностью и зависимостью от синтаксической позиции. Также анализируются основные направления классификации ḥurūf al-maʿānī, включая морфологический, грамматический (основанный на теории ʿāmil), а также функционально-семантический подходы. Отмечается, что традиционные классификации, ориентированные преимущественно на формальные признаки и грамматическое управление, не в полной мере отражают семантическую природу ḥurūf al-maʿānī. В связи с чем обосновывается современный функционально-семантический подход, позволяющий учитывать реляционную природу значений ḥurūf, их поливалентность и дискурсивную обусловленность. Делается вывод о необходимости комплексной классификации, интегрирующей формально-грамматические и функционально-семантические параметры, что способствует более адекватному описанию системы служебных элементов арабского языка.

Kirish. Arab tili grammatik tizimining murakkab va koʻp qirrali tuzilmalari orasida ḥarf tushunchasi muhim lingvistik va semantik yukni oʻz ichiga olgan kategoriya sifatida ajralib turadi. Xususan, maʼno ifodalovchi – ḥarf al-maʿānī soʻzlar, iboralar va gap boʻlaklari oʻrtasida mantiqiy va sintaktik bogʻlanishni taʼminlovchi, shu bilan birga, muayyan maʼnolarni daqiq anglatuvchi vositalar sifatida tilning turli maʼnolarini ifodalash imkoniyatini yanada kengaytiradi.

Maʼlumki, arab tilida maʼno ifodalovchi ḥarf – yoʻrdamchi soʻzlar mustaqil maʼnoga ega boʻlmagan, lekin oʻz vazifasi orqali gap tuzilishini shakllantirish va semantik aloqalarni barpo etishda ishtirok etuvchi muhim unsurlardan biri hisobalandi. Ular koʻp jihatdan funksional boʻlib, muayyan grammatik, masalan, sabab-natija aloqalari, vaqt va makon munosabatlari, feʼllarning istak (naşb) va shart (jazzm) mayli, tasdiq, inkor, ehtimol, taxmin va boshqa holatlarni ifodalashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tahlil jarayonida arab grammatik anʼanasining klassik asarlari hamda zamonaviy tadqiqotlariga tayanildi. Xususan, Xalil ibn Ahmad Farahidiy, Abu Bishr Sibavayh, Abul Hasan Rummaniy, Abul Qasim Zajjajiy, Abul Fath Ibn Jinniy, Mahmud

Zamaxshariy singari til bilimdonlari tomonidan ҳарflarni tizimlashtirish, tasniflash va sharhlash masalalariga oid maxsus asarlar yaratildi.

Hozirgi arab tilshunoslari Fadil Samarrai, Tammam Hassan, Ibrahim Anis, Ahmad Muxtar, Mustafa G'alayiniy, Ahmad Ibrahim Hindiy va boshqalar ҳарflarning tasniflari va semantik xususiyatlarini tahlil qilib, ularning ma'no xususiyatlarini kontekstual omillar bilan bog'liqlik masalalar yanada chuqurroq ochib berishgan.

Shu bilan birga, B.M. Grande va D.V. Frolov kabi rus arabshunos olimlarning arab tili grammatik tizimi hamda an'anaviy grammatikada ҳарflarning vazivalari masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlari ham jalb qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi huruf ҳarf al-ma'ānī tasniflashning mavjud yondashuvlarini tizimlashtirish va taqqoslashga qaratilgan nazariy-tahliliy va qiyosiy-tahliliy usullarning uyg'unligiga asoslangan. Yetakchi uslub sifatida funksional-semantik tahlil bo'lib, u yordamchi soz'ning ko'p vazifaliligini, ma'nolarining relyatsion xususiyatini va kontekstual bog'liqligini aniqlash imkonini beradi.

Muhokama va natijalar. Arab tilidagi ҳurūf al-ma'ānī tasnifi ushbu birliklarning ko'p qirrali tabiatini aks ettiruvchi o'zaro bog'liq mezonlar majmuasiga tayanadi. Avvalo, morfologik xususiyatlar va yordamchi unsurlarning boshqa gap unsurlariga sintaktik ta'sir ko'rsatish ('amal) qobiliyatini o'z ichiga olgan formal-grammatik mezonlar hisobga olinadi. Shu bilan birga, ҳurūfning ma'no doirasini, ularning ko'p ma'noliligi, ko'p vazifaliligi hamda relyatsion xosliklarini aniqlash imkonini beruvchi funksional-semantik xususiyatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, ҳарflarning gapdagi o'rni, leksik qurshovi va diskurs turiga bog'liq holda ularning ma'nosi va vazifasi o'zgarishini aks ettiruvchi kontekstual omil ham muhim rol o'ynaydi. Mazkur mezonlarning kompleks qo'llanilishi ҳurūf al-ma'ānīni nafaqat formal-grammatik turkum sifatida, balki uyg'unlashgan yondashuvni talab qiluvchi funksional-semantik til tizimi sifatida talqin etish imkonini beradi.

Demak, arab tilidagi ҳарflarni tasniflashda bir necha mezonlarga tayaniladi (Sibawayhi, 1988, V.I, 507 p.; Ibn Jinni, 1993, 969 p.; Rummani, 2014, 244 p.; Grande, 2001, Pp. 393-394; Frolov, 2006, Pp. 34-53). Asosiy tasniflar quyidagilar: 1) morfologik tuzilish (struktura) bo'yicha ҳарflar tasnifi; 2) semantik xususiyatlar bo'yicha ҳарflar tasnifi; 3) grammatik ta'siri (flektivlik va noflektivlik); 4) funksional (fe'l yoki ot bilan bog'liq vazifasi).

Morfologik tasnif Basra maktabi olimlari tomonidan keng targ'ib qilingan tasniflardan biri hisoblanadi. Ushbu tasnifga ko'ra, ҳарflar tarkibiy tuzilmasi, ya'ni ularni tashkil qiluvchi undoshlar soni bo'yicha 5 ta guruhga ajratiladi: 1) الحروف الأحادية al-ḥurūf al-uḥādiyyah – bir undoshli; 2) الحروف الثنائية al-ḥurūf al-thunā'iyyah – ikki undoshli; 3) الحروف الثلاثية al-ḥurūf al-

undoshli harflar orasidan – اذما idhmā, آلا allā, إلا illā, أما ammā, إما immā, حتى hattā, كالا kallā, لاما lammā, لولا lawlā, لوما lawmā, هالا hallā harflarini tavsiflagan.

Yuqorida keltirilgan morfologik tasniflarni tahlil qilish, ularni tuzish uchun asos boʻlgan bir nechta tamoyillarni aniqlashga imkon berdi. Birinchidan, fonetik-grafik tamoyili (مبني mabnī oʻzgarmas shakl): eng kichik shakldan katta shaklga qarab oʻzgarish hamda bir harfli tuzilma ham butun bir maʼnoni ifodalashi mumkin. Ikkinchidan, semantik tamoyil (معنى maʼnan): harf shaklining ikki, uch, toʻrt undoshli shaklgacha koʻpayib, kengayib borishi maʼno va vazifalarning murakkabligi bilan bogʻliqdir. Bir harfli shakllar asosan sodda (masalan, birgalikdagi harakat, bogʻlash, birlashtirish, sabab, vosita va boshqa) munosabatlarni ifodalovchi old koʻmakchi va bogʻlovchilar sifatida namoyon boʻladi. Ikki harfli shakllar aksar hollarda variativlikni beradi, yaʼni ushbu koʻrinishdagi harflar koʻp maʼnoli xususiyatiga ega. Shuningdek, uch va toʻrt harfli shakllar murakkab maʼnoviy va mantiqiy, masalan, zidlov, cheklash, ehtimollik, umid-ishonch, shart, sabab-natija kabi munosabatlarni ifodalaydi. Va nihoyat, ushbu tasnif harflarni shakli va tarkibi jihatidan tartibga solish, uslubiy qoidalar va tahlil modellarini yaratish, matnlarni toʻgʻri tahlil qilish, qolaversa, ularni tez va oson eslab qolish uchun xizmat qiladi.

Semantik tasnifga koʻra harflar bir nechta guruhlariga ajratiladi. Ushbu tizimlashtirishda mumtoz olimlar Abul Hasan Rummaniy, Ibn Hisham Ansariy, Abul Qasim Zayjajiy shuningdek, hozirgi olimlar Mustafa Gʻalayiniy, Ahmad Muxtar, Ahmad Ibrahim Hindiy, Antuan Dahdah kabilarning grammatik asarlariga tayanildi. Xususan, Abul Hasan Rummaniy tub harflarning 10 dan ziyod umumlashtirilgan semantik guruhlarini qayd etgan boʻlsa, Ibn Hisham Ansariy ularni 20 ta guruhga taqsimlab, kengaytirilgan, batafsil bayonini keltirgan (Rummani, 2014, 244 p.). Hozirgi davr olimlaridan Mustafa Gʻalayiniy harflarning 30 dan ortiq guruhlariga ajratib, ularning semantikasini keng yoritib bergan (Galayini, 2007, 591 p.). Shuningdek, Ahmad Muxtar 18 ta asosiy semantik guruhlarini tahlil qilgan boʻlsa (Muxtar, 1994, 657 p.), harflarni semantik jihatdan tizimlashtirib, batafsil tasnifini tuzishga Antuan Dahdah muvaffaq boʻlgan (Dahdah. 1981, p. 24).

Semantik tasnif muayyan maʼno, yaʼni aniq bir semantik maydon qaysi hurūf al-maʼānīlar yordamida ifodalanishini koʻrsatadi. Bunday tasnif nafaqat semantik farqlarni, balki maʼnolardagi darajalanish tizimini ham aks ettiradi. Ayrim maʼnolar asosiy (“yadro”) deb hisoblansa, boshqalari esa “ikkilamchi” yoki “periferik” boʻlib, koʻchirishlar va kontekstual kengayishlar asosida paydo boʻladi. Masalan, ل li (la) harfining asosiy, “yadro” maʼnosi maqsad yoki natija boʻlsa, uning “ikkilamchi”, ikkinchi darajali maʼnosi tegishlilik, egalik, yoʻnalish, taʼkid, hol kabi maʼnolar bilan bogʻliq (Dahdah. 1981, p. 24). Demak, semantik tasnif harflarning keng qamrovli maʼnolarni ifodalashi, boshqacha qilib aytganda, ularning koʻp maʼnolilik – taʼaddud / taʼaddud al-maʼnā, yaʼni harfning gapdagi sintaktik muhiti va pragmatikasiga qarab bir nechta semantik vazifalarni amalga oshirish qobiliyati, xususiyatidan dalolat beradi.

Mumtoz arab nahvchilari ko‘p ma‘nolilik xususidagi qarashlari turlicha bo‘lgan. Basra maktabi vakillari harflarning xilma-xilligini “asosiy ma‘no”gacha kamaytirishga harakat qilib, qolganlar ma‘nolarini hosila sifatida talqin qilishgan. Kufiyalar esa semantik vazifalarning ko‘pligini teng hodisa sifatida tan olishgan. Keyingi davrlarda qator olimlar tomonidan ko‘p ma‘nolilik tilning funksional moslashuvchanligining namoyon bo‘lishi sifatida tizimli tushuntirilishiga harakat qilingan.

Shu tariqa, arab tilidagi tub harflar quyidagi 40 ta semantik guruhga umumlashtirib ajratish mumkin: 1) ابتداء ibtidā – boshlanish ma‘nosi: بَلْ bal, حَتَّى ḥattā, ف fa, ل la, و wa; 2) استثناء istithnā – istisno ma‘nosi: إِلَّا illā, حَتَّى ḥattā, حَاشَا ḥāshā, خَلَا khalā, سِوَى siwā, عَدَا ‘adā; 3) استدراك istidrāk – o‘zgartirish, qo‘shish ma‘nolari: بَلْ bal, عَلَى ‘alā, لَكِنَّ lakin, لَكِنَّ lākinnā; 4) افتتاح istiftāḥ – kirish, muqaddima qilish ma‘nolari: أَلَا allā, أَمَّا ammā; 5) استفهام istifhām – savol, so‘roq ma‘nosi: أ hamza, مَا mā, هَلْ hal; 6) استقبال istiqbāl – (fe‘llarda) kelasi zamon ma‘nosi: س sa, سَوْف sawfa; 7) إضراب idrāb – tuzatish, to‘g‘rilash ma‘nolari: أَوْ aw, بَلْ bal, لَكِنَّ lakin; 8) أمر amr – buyruq ma‘nosi: ل li; 9) تحضيض taḥḍīd – chorchash, undash ma‘nolari: أَلَا alā, أَلَا allā, لَوْلَا lawlā, لَوْ مَا lawmā, هَلَا hallā; 10) تحقيق taḥqīq – bajarish, amalga oshirish (tugallanganlik) ma‘nosi: قَدْ qad; 11) تَخْيِير takhyīr – tanlash ma‘nosi: إِمَّا immā, أَوْ aw; 12) تَرْجٍ tarajj – umid va istak ma‘nosi: لَعَلْ la‘alla, لَيْت layta; 13) تَشْبِيه tashbīh – tashbīh qiyoslash, o‘xshatish ma‘nolari: ك ka, كَأَنَّ ka‘anna; 14) تَصْرِيْف taṣrīf – turlash, tuslashda: ت ta, م ma, ن nun, و wa, ا alif, ي ya; 15) تَعْجَب ta‘ajjub – hayrat, taajjulanish ma‘nosi: ل la, مَا mā; 16) تَعْرِيف ta‘rīf – aniqlik ma‘nosi (predmet, shaxs, hodisalarda): أَلْ al (ta‘rīf); 17) تَعْلِيل ta‘līl – sabab ma‘nosi: إِذْ idh, حَتَّى ḥattā, عَلَى ‘alā, عَنْ ‘an, فِي fī, كَيْ kay, ل la (li), مِنْ min; 18) تَفْسِير tafsīr – tushuntirish, sharhlash ma‘nolari: أُنْ an, أَيَّ ay; 19) تَفْصِيل tafṣīl – batafsillik, tafsilot ma‘nosi: أَمْ am, أَمَّا ammā, إِمَّا immā, أَوْ aw, ثُمَّ thumma, ثُمَّتْ thummata, ف fa, ل la, لَكِنَّ lakin, مِنْ min, و wa; 20) تَقْلِيل taqlīl – kamaytirish, qisqartirish: رُبَّ rubba, رُبَّتْ rubbat, قَدْ qad, و wa; 21) تَكْثِير takthīr – ko‘paytirish, orttirish ma‘nolari: رُبَّ rubba, رُبَّتْ rubbat; 22) تَمَنَّ tamannin – tilak, taklif, xohish ma‘nolari: لَعَلْ la‘alla, لَوْ law, لَيْت layta, هَلْ hal; 23) تَنْبِيْه tanbīh – tanbeh, ogohlantirish, e‘tiborni tortish ma‘nolari: أَلَا alā, إِلَّا illā, أَمَّا amā, هَا ha, هَآ hā; 24) تَنْدِيم tandīm – afsuslanish ma‘nosi: أَلَا alā, أَلَا allā, لَوْلَا lawlā, لَوْ مَا lawmā, هَلَا hallā va va boshqalar.

Shunday qilib, harflarning ma‘nosi bo‘yicha tasniflash quyidagilarni aniqlash imkonini berdi. Birinchidan, ushbu tasnif orqali harflarning sof grammatik tavsifidan semantik yondashuvga o‘tish kuzatiladi, ikkinchidan, harflarning ko‘p ma‘noliligi ularning ajralmas xususiyati sifatida namoyon bo‘ladi. Uchinchidan, har bir harf sintaktik tuzilmada ma‘lum joy, turg‘un joylashuv (مَحَلّ maḥall)ni egallaydi, lekin nutqiy vaziyatga qarab harf turli joylarga o‘tishi mumkin, bu esa hosila ma‘no maydonining shakllanishiga olib keladi.

Hozirgi tilshunoslik nuqtayi nazaridan harflarning ko‘p ma‘noliligini ularning funksional-semantik ko‘lami deb ta‘riflashimiz mumkin: har bir ma‘no o‘ziga xos sintaktik vaziyatda

faollashadi, bu esa mantiqiy-semantik munosabatlarning keng doirasini minimal vositalar yordamida ifodalash imkonini beradi.

Grammatik ta'siri (flektivlik va noflektivlik) va funksional (fe'l yoki ot bilan bog'liq vazifasi) harflar grammatik o'zgarishga ta'sir qiladigan va grammatik o'zgarishga olib kelmaydigan guruhlariga ajratiladi. Mazkur guruhlariga ajratishni qator tilshunoslar, xususan Sibavayh, Yahya ibn Ziyad Farra', Ibn Hisham Ansariy hamda Mustafa G'alayiniy, Tammam Hassan, Ibrahim Anis, Ahmad Muxtar, Ayman Amin Abdul G'aniy kabi hozirgi olimlarning ilmiy asarlarida uchratish mumkin.

Sibavayh tomonidan asos solingan ushbu tasnifda harflar omil bo'la oladigan (عامل 'āmil), ya'ni boshqa so'zlarga ta'sir ko'rsatuvchi va omil bo'lmaydigan (عامل غير ghayr 'āmil) – so'zlarga ta'sir ko'rsatmaydigan turlarga ajratiladi (Sibawayhi, 1988, V.I, 507 p.). O'z navbatida Farra' ham harflarni omil xususiyatlariga ko'ra tasniflab, ularni grammatik o'zgarish beruvchi va omil bo'lmaydigan – faqat ma'no beruvchi so'zlarni ko'rsatgan (Farra', 2005, 1327 p.). Ibn Hisham Ansariy tizimli yondashuv asosida, ism (ot)larga ta'sir qiluvchi (عامل في الأسماء 'āmil fī al-asmā'), fe'llarga ta'sir qiluvchi (عامل في الأفعال 'āmil fī al-af'āl) va ta'sir ko'rsatmaydigan (عامل غير ghayr 'āmil) harflar tasnifini ilgari surdi (Ansari, 1991, 872 p.).

Hozirgi arabshunos olimlaridan Tammam Hassan harflarnig omil bo'la olish darajasi va ta'sirini hisobga olib, ularni ochiq, oshkor ta'sir qiluvchi (عامل لفظاً 'āmil lafẓan); kontekst, tahlilda omili ko'rinadigan (عامل تقديراً 'āmil taqdīran) hamda ta'sir ko'rsatmaydigan (عامل غير ghayr 'āmil) turlariga ajratadi (Tammam, 1994, Pp. 132-132). Ibrahim Anis harflarning semantik va sintaktik ta'siriga ko'proq e'tibor berib, ularni o'zgartiruvchi (حروف التغيير ḥurūf al-taghyīr); ma'noni kuchaytiruvchi, tasdiqlovchi (حروف التوكيد ḥurūf al-tawkiḍ) va bog'lovchi (حروف الربط ḥurūf al-rabṭ) turlarini keltiradi (Anis, 1978, Pp. 270-274). Ahmad Muxtar esa harflarni so'zlarga nisbatan ta'sir kuchiga ko'ra kuchli ta'sirga (عامل قوي 'āmil qawī) va kuchsiz ta'sirga ega (عامل ضعيف 'āmil ḍa'īf) hamda ta'sirsiz, ta'sir qilmaydigan (عامل غير ghayr 'āmil) guruhlariga bo'ladi (Mukhtar, 1994, p. 279). Mustafa G'alayiniy harflarni ularning flektivlik darajasi, ya'ni boshqaruvidagi so'zning o'zgarishi yoki o'zgarmasligi ko'rsatkichiga qarab so'zlarning fleksiyasini o'zgartiruvchi الحروف العاملة al-ḥurūf al-'āmilah va o'zgartirmaydigan الحروف العاطلة al-ḥurūf al-'ātilah turlariga ajratadi (Galayini, 2007, p. 557).

Demak, harflar grammatik ta'siri, ya'ni ularning fleksiya (i'rāb)ni yuzaga keltirishga moyilligi jihatidan kelib chiqib, quyidagi guruhlariga ajratildi:

1) حروف الجرّ ḥurūf al-jarr (so'zma-so'z: qaratqich kelishik harflari): إلى ilā, ب bi, ت ta, حَتَّى ḥattā, حاشا ḥāshā, خلا khalā, رَبُّ rubba, عَدَا 'adā, عَلَى 'alā, عَنْ 'an, فِي fī, ك ka, كَيْ kay, ل lī, مُذْ mudh, مُنْذُ mundhu, مِنْ min, و wa;

Ushbu guruhdagi ҳарflar ism (otlar)ga ta'sir qilib, ularni qaratqich kelishigida kelishini talab qiladi. Bu ҳарflar o'zining grammatik vazifasi va ma'nosi bo'yicha ko'pincha tub (asl) old ko'makchilar (Grande, 2001, Pp. 400-408; Chernov, 1995, Pp. 80-83; Red'kin, Bernikova, 2015, Pp. 197-202) sifatida namoyon bo'ladi. Barcha qaratqich kelishigi bilan bog'liq ҳарflar orasidan tub old ko'makchilar vazifasida faqat إلى ilā, ب bi, حَتَّى hattā, عَلَى 'alā, عَنْ 'an, فِي fi, ك ka, ل li, مُذ mudh, مِنْ min kabilar ishlatiladi. Ularning grammatik xususiyati o'zidan keyin kelayotgan so'zni qaratqich kelishigi (genitiv) orqali boshqarib, joy (makon), zamon, maqsad, sabab, natija, qurol-asbob kabi ma'nolarini ifodalashi bilan bog'liq. Asosiy vazifasi esa old ko'makchi sifatida ot va predikat o'rtasidagi bog'lanishni ta'minlaydi, "joy/zamon", "zamon/joy", "joy/zamon/maqsad", "joy/sabab", "joy/asbob-qurol", "sabab/natija" va boshqa grammatik munosabatlarni hosil qiladi. Masalan, في الدار fi al-dār uyda, إلى المدرسة ilā al-madrasah maktabga, في الصباح fi al-ṣabāḥ tongda, لي-التعلم li-l-ta'allum o'qish uchun, بالعلم bi-l-qalam qalam bilan va h.k.;

2) حُرُوفُ النسخ hurūf al-naskh (so'zma-so'z: [kelishikni] "bekor" qiluvchi ҳарflar): إِنَّ inna, أَنَّ anna, كَأَنَّ ka'anna, لَعَلَّ la'alla, لَكِنَّ lākinna, لَيْتَ layta; (asosiy 6 ta yuklamaga qo'shimcha 4 ta yuklama: إِنَّ in, لَا lā, لَأْتِ lāta, مَا mā);

Mazkur ҳарflar ism (ot)larga ta'sir qiluvchi bo'lib, otlarning bosh kelishigidagi shaklini tushum kelishiga o'zgartiradi. Arab grammatikasida ular "egaga ta'sir qiluvchi yuklamalar yoki egani tushum kelishida kelishi talab qiluvchi yuklamalar" nomi bilan yuritiladi. Ta'kidlash kerakki, arab grammatik an'anasida bu ҳарflar bir nechta boshqa nomlarga ham ega (Sibawayhi, 1988, V.II, Pp. 141-148; Rummani, 2014, p. 123; Grande, 2001, p. 421):

a) حرف مشبّه بالأفعال al-ḥarf al-mushabbah bi al-af'āl – "fe'llarga o'xshash ҳарflar", ya'ni ular fe'llar kabi ism (ot)ni tushum kelishigida bo'lishini talab qiladi;

b) الحرف العامل في الجملة al-ḥarf al-'āmil fi jumlah – "gapga ta'sir qiluvchi ҳарflar";

v) نواسخ الإبتداء nawāsikh al-ibtidā' – "gap boshidagi egani bosh kelishikda kelishini inkor qiluvchi ҳарflar", ya'ni gap boshida kelgan ega vazifasidagi so'zning bosh kelishikdagi shaklini tushum kelishigiga o'zgartiradi;

g) إنا وأخوانها inna wa akhawātuhā – "inna va uning opa-singillari", ya'ni inna va unga o'xshash yo'rdamchi so'zlar.

Bu yuklamalar o'zining grammatik vazifasiga ko'ra ot kesimli yoki fe'l kesimli gaplarda egaga ta'sir qiladi, uni tushum kelishigida kelishini talab qiladi. Shu orqali asosiy vazifasi namoyon bo'ladi: yuklama sifatida ta'kid, ehtimollik, ishonch, umid kabi ma'nolarni ifodalaydi, dalil, isbotni kuchaytiradi, mavzuni ta'kidlaydi va uning doirasi, chegarasini belgilaydi. Masalan, إِنَّ زَيْدًا قَائِمٌ inna Zaydan qā'im. Haqiqatan ham, Zayd turibdi; لَعَلَّهُ نَاجِحٌ la'allah nājih. Ehtimol, u muvaffaqiyatga erishadi; لَيْتَ زَيْدًا يَجِيئُ layta Zaydan yajī'. Qani edi, Zayd kelsa; كَأَنَّ الْعِلْمَ نُورٌ ka'anna al-'ilm nūr. Ilm nur kabidek va h.k.;

3) حروف النداء *hurūf al-nidā'* (so'zma-so'z: chaqirish, murojaat *harflari*): ء hamza, ا alif, آy, أَي ayya, أَيَا ayā, هَيَا hayā, وا wā, يا yā;

Bu guruhdagi yuklamalar o'zidan keyin kelgan so'zlarga ta'sir ko'rsatib, ularni bosh kelishikda va tanvin (qo'shimcha)siz, ba'zilar esa tushum kelishigida ham kelishini talab qiladi. Grammatik vazifasi bo'yicha *الْمُنَادَى al-munādā* – murojaat qilinayotgan so'z, undov tuzilmani kiritadi, uning kelishigi va sintaktik vazifasini belgilaydi. Asosiy vazifasi – murojaat va e'tiborni jalb qilish yoki nutq so'zlovchining hissiy holatini ifodalash vositasi. Masalan, *أولاد! Ey (hoy), bola!*; *يا سائق انتبه! yā sā'iqu intabih! Ey haydovchi, e'tiborli bo'!* va h.k.;

4) حروف الاستثناء *hurūf al-istithnā'* (so'zma-so'z: istisno *harflari*): إلا illā;

Istisno *harflari* gapning turidan va gapdagi mustasno so'zdan kelib chiqib, o'zidan keyin turgan so'zni tushum kelishigida bo'lishini taqozo etadi. Grammatik vazifasiga ko'ra, ushbu *harf* mustasno so'z (*al-mustathnā*)ni kiritadi, uning kelishigini belgilaydi va istisno qilinayotgan so'z bilan bog'laydi. Asosiy funksional xususiyati istisno, cheklash va qarshi qo'yishni ifodalash hamda bayonga aniqlik kiritish bilan bog'liq. Masalan, *جاء القوم إلا زيداً jā'a al-qawm illā Zaydan*. Zayddan boshqa, barcha jamoa (*qavm*) keldi; *ما جاء القوم إلا زيداً mā jā'a al-qawm illā Zaydan*. Zayddan boshqa hech kim kelmadi (yoki Faqat Zayd keldi) va h.k.;

Yuqoridagi keltirilgan 4 ta guruhdagi yuklamalar faqat ism (ot)larga ta'sir ko'rsatuvchi, ya'ni ularning fleksiyasi (*i'rāb*)ini o'zgartiruvchi *harflar* hisoblanadi.

Quyidagi *harflar* guruhlari faqat fe'llar bilan keladi va omil sifatida ularga ta'sir ko'rsatadi (Mukhtar, 1994, Pp. 306-308):

5) حروف الجزم *hurūf al-jazm* (so'zma-so'z: sukun qiluvchi, so'z oxiridagi harakatni olib tashlovchi *harflar*): *إدما idhamā, إن in, ل li, لم lam, لَمَّا lammā, لا lā*;

Ushbu yuklamalar hozirgi zamon fe'llari (*imperfekt*)ga ta'sir ko'rsatib, ularning oxirida turgan qo'shimcha (*harakat*) – *damma*, *ya* va *nūn*, *alif* va *nūn*, *waw* va *nūn*larni sukun qiladi yoki tushirib qoldiradi, ya'ni fe'lni *jazm* holatida bo'lishini talab qiladi. Arab tili grammatikasiga oid o'zbek tilidagi adabiyotlarda *jazm* holati fe'ning shart mayli deb ataladi (Rustamov, 2020, Pp. 108-116; Rustamov, 2022, Pp. 35-42; 2025, Rustamov, Pp. 561-567). Mazkur guruhdagi *harflar* qo'shma gaplar tarkibida ishlatilganda bog'lovchi vazifasini ham bajarishi mumkin. Bu holda ular bosh gapdagi fe'lga ham, ergashgan qo'shma gapdagi fe'lga ham ta'sir ko'rsatib, ularni shart mayli shaklida bo'lishini talab qiladi. Shu sababli ularni *حروف الشرط hurūf al-sharṭ* – shart *harflari* deb ham atashadi. Masalan, *إن يذهب زيد أذهب معه in yadhhab Zayd adhhab ma'ahu*. Agar Zayd borsa, men ham u bilan boraman; *لم يظلم lam yazlim*. U adolatsizlik qilmagan.

6) حروف النصب *hurūf al-naṣb* (so'zma-so'z: *nasb harflari*): *إذن idhan* (yoki *إدًا idhan*), *أن an, كَي kay, لن lan*;

Bu yuklamalar ham omil sifatida imperfekt shakldagi fe'llariga ta'sir qilib, ularni naşb holatida, ya'ni oxirida fatħa harakati bilan bo'lishini taqozo etadi. Arab tilidagi naşb holati o'zbek tilida istak mayli grammatik kategoriyasi deb shartli ravishda beriladi (Rustamov, 2017, Pp. 337-342; Begmatova, Mutalova, Kasimova, 2023, Pp. 3601-3609). Masalan, أحترم الناس كي يحترموك. إن أقتصر. إhtarim al-nās kay yaħtaramū-ka. Odamlar seni hurmat qilishlari uchun, ularni hurmat qil; لن أقتصر. Men ilm izlashda aslo to'xtamayman.

Mazkur guruhda yana bir nechta ħarflar mavjud: حروف النصب الفرعيّ ħurūf al-naşb al-far'ī (so'zma-so'z: ikkilamchi, qo'shimcha naşb ħarflari): أو aw, ثمّ thumma, حتىّ ħattā, ف fa, ل li, و wa. Bu guruhdagi ħarflar asosiy naşb ħarflaridan farqli ravishda har doim ham istak mayli bilan bog'liq ma'nolarda kelavermaydi, faqat ba'zi holatlarda, muayyan kontekst va ma'no tarkibida naşb holatini ifodalaydi. Masalan, استمع نصيح الطبيب أو يتمّ شفاؤك. (إلى أن يتمّ). Istami' nuşħa al-ṭabībi aw yatimma shifā'uka (ilā an yatimma). Toki shifo topilmagunicha shifokor maslahatiga quloq sol; جاء ليطلب مالا. jā'a li-yaṭluba mālan. U pul so'rash uchun keldi.

Fleksiyaga ta'sir ko'rsatmaydigan, ya'ni omil bo'lmaydigan (عامل غير ghayr 'āmil) ħarflar quyidagi guruhlardan iborat:

1) حروف العطف ħurūf al-'aṭf (so'zma-so'z: biriktiruvchi, bog'lovchi ħarflar): أم am, أو aw, إنا immā, لكنّ lakin, لا lā, و wa; بل bal, ثمّ thumma, حتىّ ħattā, ف fa, لكنّ lakin, لا lā, و wa;

Mazkur guruhdagi ħarflar bevosita o'zidan keyin kelgan so'zni o'zgartirmaydi, ya'ni fleksiya jihatidan ta'sir ko'rsatmaydi. Ko'pincha bu ħarflarga o'zbek tilida bog'lovchi deb ta'rif beriladi (Abdurakhmanov, 1996, Pp. 123-124). Bog'lovchilar ikki turga bo'linadi:

a) teng bog'lovchilar – ħurūf al-'aṭf: أم am, أو aw, إنا immā, بل bal, ثمّ thumma, ف fa, لكنّ lakin, لا lā, و wa. Ularning grammatik xususiyati: gapning teng unsurlarini bog'lab, ketma-ketlik, zidlov, muqobillik kabi ma'nolarni ifodalash bilan bog'liq. Asosiy vazifasi esa, nutq, matnda yaxlitlikni hosil qiladi, harakat, voqea, hodisalar tartibini va ular orasidagi teng huquqli munosabatlarni belgilaydi. Masalan, جاء زيد وعمرو jā'a Zayd wa-'Amr – Zayd va Amr keldi; لكنّ لآكينا Khālid ghā'ib – Ammo Xolid kelmadi.

b) tobe bog'lovchilar – ħurūf al-naşb (istak mayli ħarflari): إند idhan (yoki إند idhan), أن an, كي kay; ħurūf al-jazm (shart mayli ħarflari): إندما idhamā, إن in, لئما lammā; ħurūf al-shart (shart ħarflari): لو law, لولا lawlā, لئما lawmā; أما ammā. Bu ħarflarning grammatik xususiyati – fe'ning fleksiyasi (mayl ko'rsatkichi)ni o'zgartirib, sabab, maqsad, shart, natija, oqibat kabi ma'nolarni izohlash va aniqlashtirishdan iborat. Asosiy vazifasi – tobe bog'lovchi sifatida maqsad, sabab, oqibat, real va noreal shart ergash gapli qo'shma gap tuzilmalarni hosil qiladi. Masalan, إن تدرس in tadrus tanjaħ – agar o'qisang, muvaffaqiyatga erishasan; لو درست لندجت law darasta lanajaħta – agar o'qiganingda edi, muvaffaqiyatga erisharding; سافر ل/ لكي يدرس sāfara li/ likay yadrusa – u o'qish uchun sayohat qildi.

2) حروف الاستفهام ḥurūf al-istifhām (soʻzma-soʻz: soʻroq ḥarfllari): أ hamza al- istifhām, ما mā, هلّ hal;

Ushbu ḥarfllar soʻroq yuklamalar vazifasini bajarib, ham ism (ot)lar, ham feʼllar bilan ishlatilib, oʻzidan keyingi soʻzga fleksiya jihatidan taʼsir koʻrsatmaydi. Ular soʻzlovchining maʼlum bir narsa haqida bilish, aniqlash yoki tasdiqni talab qilish maqsadida ishlatiladi. Masalan, ما طلعت الشمس؟ a ṭalaʼati al-shams? Quyosh chiqdimi?; ما عندك؟ mā ʼindaka? Senda nima bor? va h.k.

3) حروف النفي ḥurūf al-naḥī (soʻzma-soʻz: inkor ḥarfllari): كَلَّا kallā, لا lā, لاَ lāta, ما mā;

Mazkur guruhdagi ḥarfllar ham yuklamalar sifatida talqin qilinadi, ular ham ism (ot)lar, ham feʼllarni fleksiya jihatidan oʻzgartirmaydi, faqat inkorlik maʼnosini ifodalaydi. Arab tilida xabarni yoki amalni inkor etish uchun xizmat qiluvchi yordamchi soʻzlar boʻlib, harakat yoki ism (ot)lardagi inkorni anglatadi. Masalan, ما ندم من استشار. mā nadima min istishār. U maslahat soʻrganidan afsuslanmadi; لا يجيب زيد. lā yajīb Zayd. Zayd kelmayapti (kelmaydi); لا حوادث مهمة في. lā ḥawādith muhimma fī. Bugungi gazetalarda hech qanday muhim voqealar yoʻq va h.k.

4) حروف الاستدراك ḥurūf al-istidrāk (soʻzma-soʻz: toʻgʻrilash, muqobil maʼno qoʻshish ḥarfllari): بل bal, على ʼalā, لكن lakin;

Ushbu ḥarfllar ot kesimli va feʼl kesimli gaplarda ishlatiladi va koʻpincha zidlovchi bogʻlovchi maʼnosida keladi. Ular ham otlardagi kelishik yoki feʼllardagi mayl grammatik kategoriyalarining oʻzgarishiga sabab boʻlmaydi. Masalan, رأيتُ زيدًا بل خالدًا raʼaytu Zaydan bal Khālidan. Men Xolidni emas, Zaydni koʻrdim; على صاحبك على أنك رجل لطيف ʼalā annaka rajulun laṭīf. Sen bilan doʻst boʻldim, chunki (boisi) sen yaxshi inson va h.k.

5) حروف الجواب ḥurūf al-jawāb (soʻzma-soʻz: javob ḥarfllari): أجل ajal, إذن idhan, إي iy, بل bal, بلال jalal, لا نعم naʼam;

Bu guruhdagi ḥarfllar grammatik jihatdan taʼsir koʻrsatmaydi, darak va soʻroq gaplarga tasdiq yoki inkor javob maʼnosini ifodalaydi. Masalan, نعم \ أجل qadima al-ustādhu. naʼam / ajal Ustoz keldi. – Ha (albatta); أ طلعت الشمس؟ نعم \ أجل \ جَلَل \ جَيْر jalal / jayri. Quyosh chiqdimi?– Ha /albatta. va h.k.

6) حروف الشرط ḥurūf al-shart (soʻzma-soʻz: shart ḥarfllari): لو law, لولا lawlā, لوما lawmā, أمّا ammā;

Bu ḥarfllar fleksiya jihatidan taʼsir koʻrsatmaydi, oʻzining nomlanishiga mos ravishda shart ergash gapli qoʻshma gaplar tarkibida ishlatilib, noreal shart maʼnosini ifodalaydi. Masalan, لو ذكرت لنجحت law dhākarta lanajahta. Agar yodlagan boʻlganingda, muvaffaqiyatga erishgan boʻlarding; لوما الكتابة لضاع أكثر العلم lawmā al-kitābah la-ḍāa akthar al-ʼilm. Agar yozuv boʻlmaganida, bilimning koʻp qismi yoʻqolgan boʻlar edi va h.k.

Shunday qilib, an'anaviy arab grammatik nazariyasida bir necha turdagi tasniflar mavjud bo'lib, asosiy e'tibor harflarning morfologik tuzilishi, ularning ma'no yuklashi va grammatik ta'siri kabi jihatlariga qaratilgan. Hozirgi arab tilshunosligida esa harflarning vazifalari, ayniqsa, ularning so'z, gap va ma'nolar o'rtasidagi aloqasi, kontekst bilan bog'liq xususiyatlariga urg'u berilmoqda.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, arab tilidagi *hurūf al-ma'ānī* tasnifi murakkab va ko'p qirrali masala bo'lib, u formal-grammatik hamda funksional-semantik yondashuvlar kesishgan nuqtada joylashgan. Klassik grammatik an'ana va zamonaviy lingvistik konsepsiyalar tahlili shuni aniqlash imkonini berdiki, asosan morfologik belgilar va 'āmil nazariyasiga tayangan mavjud tasniflar ushbu birliklarning semantik mohiyati va funksional kengligini to'liq aks ettira olmaydi.

Tadqiqot jarayonida *hurūf al-ma'ānī* ko'p ma'nolilik, ko'p vazifalilik va relyatsion ma'no xususiyatlariga ega ekanligi, ularning mazmuni esa kontekstual-distruktiv sharoitlarga bog'liq holda namoyon bo'lishi asoslab berildi. Bu esa biryoqlama tasnif modellari doirasidan chiqib, formal-grammatik va funksional-semantik me'yorlarni uyg'unlashtiruvchi yondashuvga tayanish zaruratini ko'rsatadi. Shu tariqa, *hurūf al-ma'ānī*ni o'rganishda funksional-semantik yondashuv eng samarali yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi, chunki u ushbu birliklarning ham tizimli, ham kontekstual xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurakhmanov G. (1996). Grammar of the Uzbek language. (Syntax). O'zbek tili grammatikasi. (Sintaksis). – Tashkent: Teacher. – 248 p. (in Uzbek)
2. Anīs, Ibrāhīm. (1978). On the Secrets of the Language. Min Asrār lugha. – Cairo: Maktabat al-injlū al-miṣriyyah. – 357 p. (in Arabic)
3. Anṣārī, Ibn Hishām. (1991). The Enricher of the Intelligent. Mughnī al-labīb. – Beirut: al-Maktabah al-ʿaṣriyyah. – 872 p. (in Arabic)
4. Begmatova B.M., Mutalova G.S., Kasimova S.S. (2023). The direct object and its use in Arabic language // Boletín De Literatura Oral -The Literary Journal, Vol. 10 No. 1. – Pp. 3601-3609. (in English)
5. Chernov, P.V. (1995). Handbook of the grammar of the Arabic literary language. Spravochnik po grammatike arabskogo literaturnogo yazyka. – Moscow: Vostochnaya literatura. – 473 p. (in Russian)
6. Daḥdāḥ, Anṭuwān. (1981). Dictionary of Arabic Grammar in Tables and Charts. Mu'jam qava'id al-lug'a al-arabiyya. – Beirut: Maktabat Lubnan. – 352 p. (in Arabic)
7. Farrā', Yaḥyā ibn Ziyād. (2005). The Meanings of the Qur'ān. Ma'ānī al-Qur'ān. – Cairo: Dār al-ḥadīth. – 1327 p. (in Arabic)

8. Frolov, D.V. (2006). Prepositions in the Arabic grammatical tradition. Predlogi v arabskoy grammaticheskoy traditsii // Arabic philology. Grammar, versification, Quran studies. – Moscow: Languages of Slavic cultures. – Pp. 34-53.(in Russian)
9. Grande, B.M. (2001). Course of Arabic grammar in comparative-historical light. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitel'no-istoricheskom osveshenii. – Moscow: RAN. – 592 p. (in Russian)
10. Ḥassān, Tammām. (1994). The Arabic Language: Its Meaning and Structure. Al-lughah al-'arabiyyah: ma'nāhā wa mabnāhā. – Cairo: Dār al-thaqāfah. – 376 p. (in Arabic)
11. Ibn Jinnī, Abū al-Faṭḥ. (1993). The Secret of the Craft of Inflection (al-I'rāb). Sirru ṣinā'at [al-i'rāb]. – Damascus: Dār al-qalam. – 969 p. (in Arabic)
12. Kamaluddin, Ḥāzim 'Alī. (1996). A Study of the Rules of Arabic Grammar in the Light of Modern Linguistics. Dirāsah fī qawā'id al-naḥw al-'arabī fī ḍaw' 'ilm al-lughah al-ḥadīth. – Cairo: Maktabat al-ādāb. – 430 p. (in Arabic)
13. Mukhtār, Aḥmad (1994). Basic Arabic Grammar. an-Naḥw al-asāsī. Ta'līf 'Umar wa ghayruh. – Kuwait: Dār al-salāsīl li al-ṭibā'ah wa al-nashr. – 657 p. (in Arabic)
14. Redkin, O.I., Bernikova, O.A. (2015). Grammar of the Arabic language (based on examples from the Koran). Grammatika arabskogo yazyka (na primerakh iz Korana). – St. Petersburg: Presidential Library. – 219 p.
15. Rummani, Abul Khasan. (2014). The Meanings of Particles. Ma'ānī al-ḥurūf. Ta'līf al-imām Abī al-Ḥasan 'Alī bin 'Īsā ar-Rummānī. – Beirut: al-Maktabah al-'aṣriyyah. – 244 p. (in Arabic)
16. Rustamov A.E. (2017). The Meaning of Particles (al-huruf-nasib) in Expressing Modality in the Arabic Literary Language. Znacheniyе chastits (al-khuruf-nasiba) v vyrazhenii modal'nosti v arabskom literaturnom yazyke // “Current Problems of Arabic Philology and Methods of Teaching the Arabic Language”. V International Scientific and Practical Conference, November 10-11, 2017. – Grozny (Chechen Republic).– Pp. 337-342 (in Russian)
17. Rustamov A.E. (2025). Features of conditional constructions in the Arabic language. Arab tilida shartni ifodalovchi konstruktsiyalar xususiyatlari // Oriental Journal of Philology, Vol 05, Issue 03. – Pp. 561-567. DOI: <https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-03-64> (in Uzbek)
18. Rustamov, A. (2020). Syntactic properties of conditional prepositions (hurufu-sh-shart). Shart yuklamalari (hurufu-sh-shart)ning sintaktik xususiyatlari. Eastern torch, 1(1), 108-116. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/eastern-torch/article/view/13273> (in Uzbek)
19. Rustamov, A.E. (2022). The characteristics of the interaction between the conditional verb and the response verb in the conditional compound sentence in Arabic. Arab tilida

shart ergash gapli qo'shma gapda shart fe'li va javob fe'lining o'zaro bog'lanish xususiyatlari // Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. Volume 2, Issue 13. – Pp. 35-42. (ISSN: 2181-2888) (<https://doi.org/10.5281/zenodo.7416928>) (in Uzbek)

20. Sheikh Al-Ghalayni, M. (2007). Collection of Arabic Lessons. Jami' ad-durus al-arabiyya. – Cairo: Dar al-ghad al-jadid. – 591 p. (in Arabic)

21. Sibawayh, Abū Bishr 'Amr. (1988). The Book. al-Kitāb. – Cairo, J.1. – 507 p.; J.2. – 432 p. (in Arabic)